

## INSON HUQUQLARI VA SIYOSIY ERKINLIKLAR - JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISH KALITI

**O' mirbayeva Aygul Keñesbay qizi**

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va suv xo'jaligi fakultetining Yurisprudendiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada inson huquqlarining jamiyat barqaror rivojlanishidagi ahamiyati tushuntirib beriladi. Huquqiy davlat va demokratik institutlar orqali inson huquqlari himoya qilinishining obyektiv qarashlari izohlanadi. Qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilish xususida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Inson huquqlari, shaxs, jamiyat, hujjat, davlat, qonunchilik*

**Аннотация:** *В статье обосновывается важность прав человека для устойчивого развития общества. Излагаются объективные взгляды на защиту прав человека посредством верховенства права и демократических институтов. Рассматривается вопрос обеспечения верховенства права и защиты прав человека.*

**Ключевые слова:** *Права человека, личность, общество, документ, государство, законодательство*

**Annotation:** *This article explains the importance of human rights in the sustainable development of society. Objective views on the protection of human rights through the rule of law and democratic institutions are explained. The issue of ensuring the rule of law and protecting human rights is considered.*

**Keywords:** *Human rights, individual, society, document, state, legislation*

Mamlakatimiz qonunlari inson va uning huquq hamda majburiyatlari asosiga qurilgan bir tizimdir. Ayni shu tizim orqali butun mamlakat va uning xalqi isloh etiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolar qonun oldida teng ekanligi belgilab qo'yilgan. Bundan kelib chiqadiki, mamlakat hududida yashayotgan har bir shaxs o'ziga xos tarzda umumiy bo'lgan ma'lum huquqlarga ega va uning huquqlari qonun oldida kafolatlanadi. Inson huquqlari butun yer yuzida barqarorlikni ta'minlab beradi. Ushbu hodisa millat madaniyatining ajralmas qismiga aylanar ekan, inson ma'naviy-huquqiy ideallarning yuqori ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlash asosiy masalaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha bir qancha shartnomalar tuzgan. Hattoki, BMT ming inson huquqlari bo'yicha kengashida ham ma'ruzalar taqdim etib kelmoqda. " Bizning fikrimizcha, - deydi professor A.X.Saidov, - " umume'tirof etilgan inson huquqlari" atamasi xalqaro hujjatlar ahamiyatini " xalqaro standartlar" atamasidan kam bo'lmagan

darajada aks ettiradi", chunki ular davlatlararo darajada ishlab chiqiladi, davlatlararo hamkorlikni tartibga solishga mo'ljallanadi..."<sup>173</sup>Umuman, shaxs huquq va erkinliklari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilab qo'yilgan. Bu nizomga ko'ra barcha insonlar huquqlarda teng tug'iladi, mol-mulki, tabaqasi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha dahlsiz turda tug'ilgan zahotiy oq yashash huquqini oladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi butun dunyo bo'yicha insonlarning huquq va erkinliklarini e'tirof etadi. Inson huquqlarini ta'minlash barcha davlatlar bajarishi shart bo'lgan vazifa sifatida qaraladi. Tashkilotning asosiy maqsadi ham butun yer yuzida insonlarning teng huquqlarga ega bo'lishi hamda uning amalda ta'minlanish masalasidir.

"Biz uchun fuqarolik jamiyati bu ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini-o'zi kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi"<sup>174</sup> Inson huquqlari sohasida xalqaro huquqning roli nisbatan baland deyish mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri maxsus qonunlar qabul qilinishi, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, xalqaro paktlar va boshqa shu kabi qator normativ-huquqiy hujatlaridir. O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha maxsus qo'mita tashkil etilgan bo'lib, ushbu qo'mita 1977-yili tashkil etilgan. Tashkil etilgan har qanday qo'mita yoki tashkilot birinchi navbatda inson huquqlarini himoya qiladi. Har bir mamlakat qonun qabul qilishda o'zining mentaliteti nuqtayi nazaridan yondashadi. 2008-yili 1-yanvar sanasidan boshlab O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi bekor qilindi. Ushbu jazo turini muqobiliga almashtirishdan maqsad yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, inson tug'ilganidan boshlab yashash huquqiga ega bo'ladi. Bu huquq eng nominatov turga mansub bo'lib, uni cheklash inson huquqlariga to'g'ri kelmaydi. Insonning erkinligini cheklash mumkin, ammo uning yashashini cheklab bo'lmaydi.

Siyosiy huquqlar bu shaxslarning erkinlarini turli xil ijtimoiy tashkilotlar, xususiyl shaxslar tomonidan buzilishiga qarshi tura oladigan, shuningdek, davlatning siyosiy hayotida qat'iy cheklovlarsiz ishtirok etishini ta'minlovchi huquqlar majmuidir. Fuqarolik huquqlar daxlsiz va unga hech kim ta'qiq qo'ya olmaydi. Fuqarolik huquqlar ijtimoiy hayotni deyarli barcha jabhada ta'minlab bera oladi. Ayni shu jihatdan u universal xususiyatga ega. Lekin, siyosiy huquqlar cheklanishi mumkin. Masalan, ma'lum qonun faqat ma'lum bir davlat fuqarolari uchun amal qiladi.

Siyosiy huquqlar inson hayotida ajralmas bir hodisadir. Fuqarolar saylov, referendum, partiyalarga birlashish orqali siyosiy huquqlaridan foydalanadi. Siyosiy huquqlardan foydalanish shaxslardan siyosiy savodxonlikni ham talab qiladi. Sababi, har qanday saylov tizimida o'z kelajagi uchun harakat qiladigan, fuqarolar uchun yangi konsepsiya ishlay oladigan, davlat hokimiyatini shakllantirishda faol harakat qilib fuqarolar huquq va erkinliklari qay holatda ta'minlanishi haqida tushunchaga ega nomzodni tanlash

<sup>173</sup> Саидов А.Х.. Международное право прав человека: Учебное пособие / Отв.ред. акад. Б.Н. Топорнин. М., 2002. - С. 80.

<sup>174</sup> I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent-1997. 80-bet

uchun har bir fuqaro bu tizim haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Tarixda ham insonlar huquq va erkinliklari uchun kurashgan. Siyosiy huquq davlatning xarakteridan kelib chiqadi. Ayni shu xususiyat nuqtayi nazaridan siyosiy huquq fuqarolik huquqidan farq qiladi. Siyosiy huquq muayyan davlat fuqarolari uchun tuziladi. Chet el fuqarosi O'zbekistonda bo'lgan vaqtida shikoyat qilishi, ariza bilan murojaat qilishi mumkin, lekin taklif bera olmaydi, bu imkoniyat faqat o'z fuqarolariga beriladi. Shu jihatlar bilan siyosiy huquq biroz cheklov o'rnatadi deyish mumkin. Yana shuni ham aytib o'tish joizki, siyosiy huquqlar yosh chegarasiga ham ega. Saylovda 18yoshdan ishtirok etish imkoniyati bor. Ijtimoiy-siyosiy kafolat davlatda amalda bo'lgan siyosiy tizim bilan bog'liq. Mamlakatimiz prezidenti ta'biriga ko'ra: " Har bir davlat o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lik tanlar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zining asosiy qonuni - Konstitutsiyada mustahkamlab oladi. Binobarin, O'z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo'lgan mamlakat o'zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og'ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi".<sup>175</sup>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida II bo'lim " Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi. VIII bob esa aynan Siyosiy huquqlarga bag'ishlangan. Qayd etish kerakki, bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari kafolatlangan. Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlari bosh nizom konstitutsiyada ma'naviy qadriyatlarimiz asosida o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyamizning 13-moddasida " O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadri-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" , deya belgilab qo'yilgan. Ushbu nizomga muvofiq fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga oid hujjatlarga rioya etilishi maxsus vakil tomonidan nazorat qilinadi.

Inson huquqlarining kafolatlanishi jamiyatda erkin muhitni ta'minlab beradi. Har bir shaxsning so'z erkinligi, vijdon erkinligi, fikr bildirish huquqi, shaxs daxlsizligi kabi huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lgan joyda ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangilikka intilish, yaratuvchanlik kuchli rivojlanadi. Bunday muhit siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy yangiliklar uchun asos bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Siyosiy erkinliklar davlat va xalq o'rtadida ko'prik vazifasini o'taydi, sog'lom aloqalarni mustahkamlaydi. Fuqarolarning erkinliklari, haq-huquqlari to'laqonli ta'minlangan jamiyatda korrupsiya kamayadi, qonun ustuvorligi asosiy planga chiqadi. Erkin siyosiy muhitda insonlar faol pozitsiyada jamiyat rivoji uchun erkin harakat qila oladilar.

Barqaror iqtisodiy o'sish uchun ham siyosiy erkinliklar zarur sharoit sifatida e'tirof etiladi. Oshkoralik, korrupsiyasiz sog'lom raqobat investitsiyalar kirib kelishini oshiradi. O'z fikrini erkin bayon eta oladigan, davlat tizimiga ishonchi yuqori bo'lgan fuqaro norozilikka berilmaydi, bu holat albatta turli nizolar, kelishmovchiliklarning oldini oladi. Erkinlik va adolat ustuvor bo'lgan jamiyat doimo barqaror rivojlanishga erishadi va butun dunyoda yetakchi

<sup>175</sup>Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 12.12.2019

o'rin sohibiga aylanadi. Siyosiy erkinliklar avvalo barqaror taraqqiyot tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Bu jamiyatning ichki hayotini tartibga solib qo'ymasdan, o'z kelajagi uchun mas'uliyatni his qiluvchi shaxs shakllanishida asosiy mezon vazifasini o'taydi. Huquqini himoya qiladigan, o'z fikrini bayon eta oladigan shaxs norozilik kayfiyatiga berilmaydi. Jamiyatda tinchlik, totuvlik hukm surar ekan, jamiyat barqaror xalq esa hayotidan mamnun bo'ladi. Fuqarolar jamiyatda mavjud muammolar xususida erkin bayon qila olmasa, bunday muhitda siyosiy tanqid kelib chiqadi. Agar fuqaro fikrini erkin biladira olsa bu orqali jamiyatdagi muammolar bartaraf etilsa vaziyat va ikki tomon uchun ham foydali bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, siyosiy huquqlarning eng boshlang'ich va asosiysi saylov huquqidir. Saylov huquqining qo'llanilishi erkin demokratik jamiyatning asosidir. Saylov jarayoni adolatli, shaffof tarzda o'tsa, fuqarolar o'zi uchun kerakli vakilni erkin tanlay oladi. Siyosiy erkinlikning ta'minlanishi huquqiy davlat barpo etish uchun zamin hozirlaydi. So'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari uchun siyosiy jarayonlarni yoritishga imkoniyat yaratish fuqarolarga o'z haq-huquqlari qay darajada ta'minlanayotganini ko'rish imkonini beradi. Demak, siyosiy erkinlikning ta'minlanishi jamiyatda bir qator jarayonlar bilan bevosita aloqador.

Xulosa o'rnida aytish joizki, siyosiy erkinliklar jamiyatning demokratik taraqqiyoti, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi uchun muhim omildir. Fikr erkinligi, birlashish huquqi, saylash va saylanish kabi asosiy siyosiy huquqlar ta'minlangan jamiyatda davlat organlari ustidan jamoatchilik nazorati kuchayadi, boshqaruv jarayonlari shaffoflashadi va fuqarolik faolligi ortadi. Aksincha, siyosiy erkinliklarning cheklanishi ijtimoiy norozilik, ishonchsizlik va rivojlanishning sekinlashuviga olib keladi. Shuning uchun siyosiy erkinliklarni rivojlantirish, ularni huquqiy, ijtimoiy va amaliy jihatdan kafolatlash har bir demokratik davlatning ustuvor vazifasidir. Fuqarolarning erkinliklari, haq-huquqlari ta'minlangan joyda jamiyat mustahkam, mamlakat esa obod bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e'lon qilingan
2. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — T., 2012. — 304 b
3. Саидов А.Х.. Международное право прав человека: Учебное пособие / Отв.ред. акад. Б.Н. Топорнин. М., 2002. - С. 80.
4. Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт / Отв. изд. А.Х. Саидов. - Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2011. - С. 11.